

## SAROYMULKXONIMNING AMIR TEMUR DAVLATIDA TUTGAN O'RNI

Shohimardonova Marjona Nurmat qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim va gumanitar fanlar fakulteti, tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi. [marjonashohimardonova@gmail.uz](mailto:marjonashohimardonova@gmail.uz)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10046925>

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Amir Temurning suyukli rafiqasi bo'lgan, xalq orasida Bibixonim nomi bilan mashhur bo'lgan Saroymulkxonimning davlat rivojiga qo'shgan hissasi, ilm-fanni qo'llab quvvatlaganligi, Samarqandda amalga oshirgan ishlari haqida batafsil yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** Saroymulkxonim, Amir Husayn, Amir Temur, Klavixo, saroy udumlari, Bibixonim madrasasi, Bibixonim masjidi.

Bibixonim-asl ismi Saroymulkxonim. Chig'atoy ulusiga mansub mug'ul xonlaridan bo'lgan Qozog'onning qizi bo'lib, 1341-yilda tug'ilgan. Saroymulkxonim dastlab 1355-yilda Movarounnahr hukmdori bo'lgan Amir Husayn ibn Musallabga nikohlanadi. 1370-yilda Amir Temur Movarounnahrni egallab Amir Temurni qatl ettiradi. Amir Husaynning haramidagi 4 nafar ayolini o'z haramiga olib ketadi. Ularning orasida Saroymulkxonim ham bo'lgan. 3 oy idda muddati o'tgandan so'ng, ularni o'z nikohiga oladi. Saroymulkxonim Chig'atoy xonining qizi bo'lganligi uchun barcha malikalardan ustun sanalgan va "katta xonim" yoki "Bibixonim" deb atalgan. Amir Temur esa "ko'ragon" unvoniga ega bo'ladi.

Tarixiy manbalar ma'lumotlariga ko'ra, Saroymulkxonim o'z davrining yetuk aql-zakovat sohibasi, yuksak idrokli, tadbirkor, farosatli, oqila, shuningdek, husn bobida ham benazir bo'lgan.

Ispaniya elchisi Rui Gansales de Klavixo o'zining "Samarqandga-Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi" asarida Saroymulkxonimni "Kan'o xonim" - katta xonim deb ataydi. Amir Temur saroyida joriy etilgan tartibga ko'ra, chet el elchilarini qabul qilish marosimida hukmdor bilan birga malikalar ham qatnashgan. Klavixoning asarida keltirilishicha 1404-yil 8-sentabr dushanba kunidan Amir Temur "Dilkusho" bog'ida elchilarni qabul qiladi.[1] Ziyofatda Saroymulkxonim va Amir Temurning boshqa xotinlari ham qatnashadi. Saroymulkxonimni Klavixo shunday ta'riflaydi: Saroymulkxonim bunday kiyingan edi: egnida zarhal bezakli, etagi yerga sudralib turgan uzun va keng, yengsiz va yoqasiz qizil shohi ko'ylak, ko'ylak belidan hech bir kechib toraytirilmagan holda etagigacha kengayib borgan. Malika oson yurishi uchun ko'ylak etagini taxminan 15 nafarga yaqin ayol ko'tarib borardi. Malikaning yuziga quyoshdan saqlanish uchun oq upa shu qadar ko'p surtilgan ediki, chehrasi bamisoli oq qog'ozga o'xshardi. Boshiga esa harbiy dubulg'aga o'xshash uchli, qizil bosh kiyim kiygan. Qalpoq uchi bamisoli jajji ayvonchaga o'xshar, favqulodda chiroyli va ikki barmoq miqdori kattaligidek keladigan uchta yoqut qadalgan, boshidan tushib ketmasligi uchun bir nechta ayol ushlab turishgan. Sochlarining rangi tim qora rangda bo'lgan. Negaki bu davrda qora sochlar qadrlangan, hatto, qora rangga ham bo'yab yurishgan. Temuriy malikalar yuzlariga oq mato tashlab yurishgan. Bog'dagi ziyofatda Saroymulkxonim Amir Temurdan biroz orqaroqda o'tirgan. Keyingi malika "Kinchikano" - "kichik malika" deb atalgan. U esa Saroymulkxonimdan biroz pastroqdagi supaga o'tirgan. Qolgan malikalar ham shu tartibda joy egallashgan.[1]

1404-yil 17-oktabrda Saroymulkxonim katta bazm uyushtiradi. Bazmga elchilar ham taklif etiladi. Saroymulkxonim bazmni o'ziga qarashli eng hashamatli saroparda chodirida tashkil

etadi. Saroparda oq va rang barang matolardan tikilgan . To'q qizil rangli gilamlar to'shalgan. Bazmga ispan elchisi Klavixo ham taklif etilgan. Klavixo Amir Temur bazmlari haqida, chodirlarning did bilan bezatilganligi, bog'lardagi o'ziga xosliklar haqida o'z estaliklarida bayon qiladi.

Saroymlukxonim insonparvar, vatanparvar, mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidan yaxshigina xabardor bo'lgan, saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan ajralib turgan. Ayniqsa ilm-ma'rifatga alohida e'tibir bergan, tolibi ilmlarga homiylik qilgan. Otasi Qozoqxon tomonidan sovg'a qilingan bir juft olmos baldog'ini sotib, o'zining shaxsiy mablag'idan XIV asrning oxirida Samarqandda madrasa qurdirgan. Madrasa sharq an'analarini o'zida mujassamlashtirgan, gumbazsimon "Chor" usulida qurilgan. Me'moriy obida chiroqli keng xonaqoh, tepasi baland gumbaz bilan bog'langan. To'rt tarafidagi keng darajalar- tobaddonlar va eshiklar orqali xonaqoh juda yaxshi yoritilgan. Tarixchi G'iyosiddin Alining "Amir Temur 1399-yil 10-mayda madrasada to'xtab o'tganligi" haqida ma'lumot beradi. Yana bir tarixnavis Fasih Havofiyning ma'lumotlariga ko'ra Amir Temur jome' masjidini kelib korganda, madrasa peshtoqi va ayvoni masjidga qaraganda balandroq va qiyaroq bo'lib qolganidan norozi bo'ladi. Me'morlar Xo'ja Mahmud Dovud va Muhammad Jaldni jazolaydi. Madrasa peshtoqi buzilgandan so'ng, keyingi yillarda madrasa qoldiqlari ham buzib tashlanadi. Rivoyatlarga ko'ra, Buxoro xoni Abdullaxon XVI asrning oxirida temuriylarga bo'lgan xusumati sababli buzdirishga buyruq beradi. Faqat madrasaning yonida joylashgan maqbara omon qoladi.

Bibixonim nomi bilan ataluvchi yana jome' masjid ham mavjud bo'lib, uni Amiri Temur Hindistondagi yurishdan qaytib kelgach, 1399-1404-yillar davomida bunyod ettiradi. Qurilishda Ozarbayjon, Hindiston va Erondan kelgan 200dan ortiq usta, 500dan ortiq tosh kesuvchi ishtirok etgan. Bundan tashqari 95ta fil ham band etilgan.[5] Masjid o'sha davrda islom diniga bo'lgan e'tiborning bir namunasi hisoblanadi. Masjid hovlisining sahni 63,8x76 metrni tashkil qilgan. To'rt tomoni ravoqlar va peshtoqlar bilan o'ralgan. Ularning umumiy sahni 167-109 metr bo'lgan. Muazzinlarning azon aytishlari uchun 4 ta minoralar qurilgan. Peshtoq an'anaviy usulda, uning ortidagi xona avval kubsimon prizma, uning ustida 8 qirrali prizma gumbazga tutashtirilgan holda poygumbaz qilib ishlangan. Masjid bezatilishida ko'proq ko'k rang qo'llanilgan, chinni gulli naqshlar va jimjimador shakllar uyg'unlashgan holda bo'rtma naqshlar bilan pardozlangan. Ichki devorlari 3 qavatli diniy xatlar bilan hoshiyalangan. Qur'on Karim qo'yish uchun Ulug'bek tomonidan ulkan lavx o'rnatiladi.[4]

Masjidning bugungi kunga qadar bir-biri bilan bog'lanmagan 6 ta me'moriy bo'laklari saqlangan. Masjid peshtoqi 1897-yilgi zilzila natijasida qulab tushgan. 1865-yil Chor Rossiyasi tomonidan vayron qilinadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan masjid hozirgi kunda ham salobatli, hashamdor va o'zining serjiloligi bilan Samarqand obidalaridan ajralib turadi.

Saroymlukxonim Samarqand madaniyatiga o'z hissasini qo'shish bilan bir qatorda, davlat boshqaruv ishlarida ham Amir Temurga o'zining dono maslahatlari bilan yordam berib turgan. Xususan, Amir Temurning Isfahon qamali paytlarida qo'shinga oziq-ovqat uchun moddiy jihatdan tanqislik ro'y beradi. Shunda Temur Saroymlukxonimdan xazinadan oltin yuborishini so'rab maktub yozadi. Saroymlukxonim esa vaziyatni anglagan holda Amir Temurga quyidagi mazmunda javob xati yo'llaydi: "Ulug' amir, zaringiz tugagan bo'lsa, siyosatingiz ham tugadi". Temur maktubdagi gaplarning ma'nosi anglagan holda qo'shiniga so'yilgan qo'y, qoramol, tuya va ot go'shti suyaklarini yig'dirib, turli shakllarda qirqtiradi va

tamg'a bosib vaqtinchalik pul muomali o'rnida ishlatadi. Keyinchalik qamal tugab Isfahon egallangach, suyak pullar oltin tangalarga almashtiriladi.[1]

Saroymulxonim farzandli bo'lmagan. Lekin shunday bo'lishiga qaramasdan, Amir Temur kichik o'g'li Shohrux Mirzoni, nevaralari Muhammad Sulton Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Mirzo Ulug'bekni Saroymulxonim tarbiyasiga topshiradi. 1405-yil 18-fevralda O'tror shahrida Amir Temur vafot etadi. Sohibqiron tomonidan taxt vorisi deb e'lon qilingan Pirmuhammad Mirzo bobosi vafot etgan paytda Qandahor viloyatida bo'lib, u hali Samarqandga yetib kelishga ulgurmasdan Xalil Sulton Mirzo 1405-yil 18-martda Samarqand taxtini egallaydi. Xalil Sulton saroy udumlariga qarshi chiqqan holda, Samarqand shahrining quyi tabaqasiga mansub hunarmand oilasida dunyoga kelgan Shodimulkni ko'rib, sevib qoladi va unga uylanadi. Samarqand taxtiga o'tirgan Xalil Sulton davlat ishlarini boshqarishda Shodimulkning aralashuvi natijasida davlat arkoni bilan hukmdor o'rtasida nizo kelib chiqadi. Bundan tashqari Amir Temurning bevalarini va kanizaklarini harbiy boshliq va amaldorlarga in'om qilish niyatini ham amalga oshiradi. 1406-yilda Tuman og'a begimni Shayx Nuriddinga beradi. 1408-yil Saroymulxonim bilan Tukul xonimlarni zaharlab o'ldiradi. Saroymulxonim jasadini o'zi bunyod ettirgan madrasa yonidagi maqbaraga dafn ettiradi.

### References:

1. Rui Gansales de Klavixo "Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi". Toshkent. "O'zbekiston". 2010
2. Turg'un Fayziyev "Temuriy malikalar". A.Qodiriy nomidagi xalq ijodi. 1994.
3. Sh. Karimov, R. Shamsiddinov "Vatan tarixi". Toshkent. "Sharq" 2010.
4. Melikuziev, A. (2023). TECHNOLOGIES OF USING READING COMPREHENSION EXERCISES IN THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATION COMPETENCES OF STUDENTS. Innovative research in modern education, 1(8), 13-16.
5. Melikuziev, A. (2023). PARALINGUISTICS: EXPLORING THE MULTIFACETED DIMENSIONS OF NONVERBAL COMMUNICATION. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(10), 338-340.
6. Akbar Zamonov. O'quv qo'llanma. Toshkent. "Bayoz". 2019.
7. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bibixonim>
8. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/tarix/temuriy-malikalar/saroy-mulk-xonim-bibixonim>